

O'QISH DARSLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH

Hayitova Mavluda Komiljon qizi

Namangan viloyati Chortoq tumani

38-umumiy o'rta ta'lif muktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda dars jarayonida zamонавиу texnologiyalardan foydalanish va shu yo'sinda dars samaradorligini oshirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv dasturi, didaktik o'yinlar, texnologik yondashuv, darsni tashkil etish jarayoni elementlari.

Yurtimizda ta'lif mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi Bola hayotida bog'chadan so'ng muktabning dastlabki davrlari muhim o'rinn tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lif davri ta'lif jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakl- lanadi, tafakkur qilish malakasi rrivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda,

avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallash- tiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, taTim jarayonida qoTlanadigan didaktik o'yinlaming roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar taTim jarayoni samaradorligini oshiradi, taTim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlan- tiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rinni tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quv- chilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki boTishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi. Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobi- liyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'1 va usullami tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdarligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta’lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta’lim ishiga texnologik yondashuv:

-ta’lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;

-o’qish-o’qitish jarayonini uzviy bog’liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo’lishni;

-ta’lim jarayonida mo’ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

-loyihalashtirilgan ishlar, amallaming barcha- sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta’lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo’lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o’qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Har bir o’qituvchi avvalo o’zi o’qitadigan o’quv predmeti va har bir o’tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kkerak Shuni ta’kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o’tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish oo sonlashadi Didaktik jarayonning samarali o’tishida motivlar muhim o’rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo’lladi Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da’vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o’qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o’stirishlari kerak. Motivlar o’quvchilami bilim, ko’nikma va malakalami oson egallashlariga yordam bberadi Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg’otadi. O’qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o’quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo’llmaydi Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o’yinlardan foydalanishlari yaxshi samara bberadi Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo’lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a’zosi ekanligini his etishga, intizomga bo’ysunishga, yangi rejimga

moslashishga majbur bo'madi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning mакtabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'r-ganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40□45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z-o'zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mmumkin Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqr egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur. «Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, ta`limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bogliq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta`limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergen yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta`riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san`at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zzlashtirgan Keyinchalik individual ta'lim o'rmini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdag'i mashqlarni

bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pag'onalarda esa ma'ruza, munozara ta`limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf - dars sistemasini keltirib chiqarib yangi texnogiyalarni kelib chiqishiga zamin hhozirlagan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda ko'plab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari ta`lim-tarbiya tizimini yaxshilashga, o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan eedi Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo bo'lib, uning asoschisi fransuz pedagogi E.Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSh, Fransiya, Belgiya, Shvesariya kabi ko'plab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qo'yilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy bo'lib, unda haq to'lashga kodir kishilarning bolalarigina o'qitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan, to'liq jihozlangan kabinet va laboratoriylar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari bo'lgan. Dars qurilishida ham qat'iy andoza, birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz o'qish darsnining taxminiy algoritmini diqqatingizga havola etamiz:

Darsning maqsadi.

Ta'limiy maqsad:

- a) o'quvchilarning to'g'ri va ravon o'qish malakalarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra, o'quvchilarning xususiyatiga mos tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsad:

- a) o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra aqliy, ma'naviy-a'loqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish;
- b) tez, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- c) dunyoqarashlarni, hulq-odob, insoniy munosabatlarni, aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirish;

Darsni tashkil etish:

Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilarga darsga qiziqish uyg'otishi zarur. Yani, **Motiv hosil qilish**: Buni darsning o'tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

2-O'quv elementi. Matnni o'qishga tayyorgarlik: yozuvchi haqida ma'lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o'quvchilarning matn- ga qiziqishlari oshiriladi. Ba'zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o'qib, o'rganamiz, deb, o'qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

3-O'quv elementi. Matnni o'qish va mazmunini so'zlash. Bunda o'qituvchi matnni o'zi o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o'quvchilar faolyatidan ham foydalanishi mumkin.

4-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

5-O'quv elementi. Lug'at ustida ishslash. Notanish so'zlarga izo' berilib, o'quvchilarning so'z boyliklari oshiriladi (bunda ko'proq o'quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi.

6-O'quv elementi. O'quvchilar matnni o'qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlashtirilishi mumkin. 2 ta, 3 ta 4 tadan o'quvchilar guruhi matnnni navbat bilan o'qiydilar. To'g'ri, ravon va ifodali o'qishga alohida diqqat qaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

7-O'quv elementi. Topshiriq bilan o'qish. O'qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismining mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlav'a topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rghanishiga yordam beradi.

8-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

9-O'quv elementi. Matn mazmuni ustida ishslash. O'quvchilar matn maz- munini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida maz- munni o'zlashtirishi mumkin.

Masalan, «Davom ettir» o'yini: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'yinash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kimchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rGANADI, atrofdagi sodir bo'ladigan voqeя va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o'yindan dars davomida o'tilgan mavzuga bog'lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O'qituvchi: «Hayvon».

O'quvchi: «It».

O'qituvchi: «O'quv quroli».

O'quvchi: «Daftar».

O'qituvchi: «Sinf jahozi».

O'quvchi: «Xantaxta».

O'qituvchi: «Ertaklar».

O'quvchi: «Zumrad va Qimmat» va hakozo.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojolantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

10-O'quv elementi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish. Nazoratni yo'qoridagi didaktik o'yinlar vositasida va testlardan foydalanib o'tkazish mumkin.

Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyatga boy bo`lgan ustozgina mavzuni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnila foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.: O'zbekiston, 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil.
3. Karimov I.A «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O'zbekiston, 2010-yil. 48-bet.
4. Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998-yil, 2-son, 29 bet.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma'naviyat,2008-yil
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston, 2000-yil
7. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
8. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
9. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limgan ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
10. Azizzxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil
11. Abdunabihevich, A. F. (2023). DARSLIKDA YORITILGAN ZULFIYAXONIM MAVZUSINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'RGANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(2), 98-103.